



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Roman-German filologiyasi fakulteti

dekani _____ p.f.n. D.Jo`rayev

“ _____ ” _____ 2013 yil

Roman-German filologiyasi fakulteti

5220100-“Nemis filologiyasi” ta'lim yo'nalishi

4 -kurs talabasi

***SANAYEVA ZARINAN*ning**

**“HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA MODAL
FE'LLARNING O'ZBEK TILI BILAN QIYOSLASH ”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

_____ talaba Sanayeva Z .

Ilmiy rahbar: _____

“ _____ ” _____ 2013 yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“Roman-German tillari” kafedrasi

mudiri: _____ f.f.n. K.Markayev

“ _____ ” _____ 2013 yil

Mundarija

Kirish.....	3-5
1 bob. Modallik hakida tushuncha.....	6-31
1.1 Modallikni ifodalovchi nemis tilidagi grammatik va leksik vositalar.....	12-14
1.1.1 Aniqlik mayli (Indikativ).....	14-15
1.1.2 Buyruq mayli (Imperativ).....	15-16
1.1.3 Shart mayli (Konjunktiv).....	16-18
1.1.4 Modal fe'llar.....	18-20
1.2.2. Modal so'zlar.....	20-24
1.2.3 Modal yuklamalar.....	24-27
1.2. 4 Modal ravishlar.....	27-28
1.2.5 Modallashgan fe'llar.....	28-29
1.2.6 haben+zu+infinitiv, sein+zu+infinitiv.....	30
1.2.7 Ravish ergash gap.....	30-
31	

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Ilova

Kirish

Mustaqillik sharofati bilan Respublikamizda chet tillarni o'rganishga va o'qitishga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Zeroki bugungi kunda jahondagi taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimizning bundan keyingi ravnaqi va taraqqiyoti uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun chet tillarni mukammal bilishning ahamiyati behad katta.

Prezidentimiz I.A. Karimov Respublikamizning rivojlanishi uchun ilm fan sohasida ham keng yo'l ochib berdi. Ilmiy izlanishlar natijasida ham olib borilmoqda. Ma'lumki, ta'lim to'g'risidagi qonunda chet tillarni o'rgatishning yangi texnologiyasini ishlab chiqishga, intensivlashtirilgan usullardan foydalanishga alohida e'tibor berilgan. Chunki yoshlarga chet tillarni o'rgatmay turib, ularni rivojlangan davlatlarga o'qishga yuborish va o'sha davlatlar yutug'idan bahramand bo'lish, jahon andozasiga mos keladigan yetuk mutaxassislar yetkazib chiqazish mumkin emas.

Chet tillar o'rganish jarayonida grammatikani ahamiyati kattadir. Ayniksa yevropa tillar ichida nemis tili grammatikasi juda murakkab hisoblangani uchun, uning o'zlashtirilishida katta ma'suliyat talab kilinadi. Modal fe'llar ham nemis tili grammatikasining bir murakkab kismi bo'lgani uchun ularning tug'ri qo'llash nemis tilini o'rganuvchilarda va tarjimonlarda ko'pgina muammolarni vujudga keltiradi. O'zbek tilida aynan modal fe'llar yo'q bo'lgani uchun shu muammo yana ham keskinlashadi. Nemis tilida modal fe'llarning juda ko'p qo'llanishiga qaramay bu mavzu bo'yicha o'zbek tilida to'liq ishlangan na ilmiy na amaliy adabiyotlar bor. Modal fe'llar to'g'risida o'zbek talabalar uchun yaratilgan darsliklarda ham to'liq ma'lumot berilmagan. Shuning uchun nemis tilidagi modal fe'llarni grammatik va semantik hususiyatlarini va ularning qo'llanilishini o'rganish, ularni o'zbek tilida Yukorida keltirilgan fikrlar ishimizning **dolzarb** ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning maqsadi nemis tilidagi modal fe'lli konstruksiyalarning o'zbek tilida ifodalanishini aniqlash, **vazifalari** esa quyidagilardan iborat:

1. Nemis tilidagi modal fe'llarning semantik va sintaktik jihatdan qo'llanilishini o'rganish.
2. Nemis tilidagi modal fe'lli konstruksiyalarning nemis tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan asarlardan to'plangan misollar orqali o'zbek tiliga ifoda imkonlarini ko'rib chiqish.

Tadqiqotning obyekti. Nemis tilidagi modal fe'llar.

Tadqiqotning material. Nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan badiiy asarlar. Bulardan Bruno Apitsning "Nackt unter Wölfen" asari va uning o'zbek tilidagi Y. Egamova tomonidan qilingan tarjimasi, "Tristan und Isolde" va uning o'zbek tilidagi Y. Parda tomonidan qilingan tarjimasi, Emine Sevgi O'zdamarning "Mein Istanbul" hikoyasi va uning o'zbek tilidagi H. Qo'chqorova tomonidan qilingan tarjimalari asosida to'plangan 330 ta modal fe'l bilan berilgan misollar tadqiqot materialining asosini tashkil qiladi.

Ilmiy yangiligi. Ushbu ishda nemis tilidagi modal konstruksiyaning o'zbek tilida ifodalash imkonlari o'rganib chiqildi.

Qiyoslash, tasvirlash va statistika **tadqiqotning metodi** bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy va nazariy ahamiyati. Mazkur ishda erishilgan natija va xulosalar nemis tilidagi modal fe'lli konstruksiyalarning o'zbek tilidagi ifoda imkonlariga o'z hissasini qo'shadi deb o'ylaymiz. Ishimizdan o'quv qo'llanmalari tuzishda ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari nemis tili o'rganuvchi o'zbek talabalari uchun ham grammatika, leksika va tarjima darslarida misollardan foydalanish qo'l keladi. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarda ham foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot ishining o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda ham tilshunoslik sohasida modallik muommolari va uning ifoda imkonlari haqida izlanishlar olib borilmoqda. Modallikning leksik va grammatik vositasi hisoblangan nemis tilidagi modal fe'llarga ko'pgina germanistlar G. Xelbig, P. Ayzenberg, K.-

E. Zommerfeld, V.Admoni, O.Moskalskaya, V.Yung, V. Shmidt, Y.Erben va boshqalar o‘z monografiyalarda diqqatlarini qaratganlar.

O‘zbek lingvistlaridan S. Saidov, G‘. Zikrillayev va boshqalar nemis tilidagi modal fe’llarni o‘zbek tilida o‘rganib chiqqanlar.

Mazkur tadqiqot ishining o‘rganilishida yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlari asos bo‘lib xizmat qiladi.

I bob. Modallik hakida tushuncha

Tilshunoclikda subyektning obyektga, voqelikka bo‘lgan ishonch, gumon, istak kabi munosabatlarni ifodalaydigan kategoriyaga modallik kategoriyasi deb ataladi. Modal so‘zi lotincha “modus” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘lchov, usul, yo‘l kabi ma’nolarni ifodalaydi. Modallikning ifodalanishi har bir tilda har xil bo‘lib, u yoki bu tilning spetsifikatsiya, ichki taraqqiyot qonunlari bilan chambarchas bog‘langandir¹.

Modallik tushunchasiga bir qancha olimlar turlicha fikrlar bildirganlar. Modallik funksional semantik kategoriya bo‘lib, u yuz bergan voqea-hodisada morfologik, semantik-konstruktiv, intonatsiya va leksik birliklar orkali ifoda etiladi².

V.G. Admoni, O.I. Moskalskaya so‘zlovchining subyektiv munosabati tasdiq va inkorda o‘z munosabatini topadi, degan fikrga kelishadilar. Shunga ko‘ra ular tasdiq va inkorni asosiy modal ma’nolar, tasdiq va inkor gaplarni esa modallikga ko‘ra gapning asosiy turlari deb e’tirof etadilar³.

Modallik o‘ziga xos keng qamrovli kategoriyadir. Bu tushunchani dastlab Arastu mantiq ishlatgan⁴. Bu esa o‘z o‘rnida bir necha asrlar ilgari ham modallik tushunchasi haqida fikrlar yuritilganligidan dalolat beradi. Demak, modallik tushunchasi ham o‘zining rivojlanish tarixiga egadir. U modallik ifodasi alohida so‘z orqali emas, balki butun bir gapda sodir bo‘lishini isbotlash uchun harakat qiladi. So‘ngra mazkur tushuncha mantiqdan lingvistikaga ham ko‘chgan. Shu bois modallik kategoriyasi fikrning mantiqiy qurilishi bilan chambarchas bog‘liq til hodisalaridan sanaladi.

¹ S.Saidov. Nemis tilidagi modal fe’llar va ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish usullari. 1962, 7-son, 49-53 bet.

² Sommerfeld/Starbe. Einführung in die Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. 2. Auflage. Max Niemeyer Verlag, Tübingen 1992. 72 bet.

³ Admoni V.G. Tipologiya predlozheniya//issledovaniya po obshey teorii grammatike. M., 1968. s.267

⁴ O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 14 tomlik. 7-tom. Toshkent. 1976. 303 - bet.

Modallik tilshunoslikning hamda mantiqning tekshirish obyektiidir. Birinchisida modallik gapning eng muhim belgisi, ikkinchisida esa tafakkur shakli ko‘rinishidagi hukumning muhim belgisi sifatida qaraladi¹.

Tilshunoslik sohasi bilan bir qarotda psixalogiya, falsafa, matematika va semantikada ham modallik tushunchasi mavjud. Falsafada ontologik modallik tushunchasi mavjud.

Charlz S.Peyrs (1839-1914) mantiqdan semiotikaga modallik tushunchasini kiritdi. Frege (1862-1937) matematika va mantiqdan til falsafasiga ko‘prik o‘rnatdi. Arifmetikaning kat’iy aksiomatik tuzilishi uchun simvollarni har hil formula va shakllarda ifoda etmasdan, balki predmet to‘g‘risidagi fikrlarni ma’no kasb etadigan belgilar orkali tahlil qildi va bu orqali ma’lum shakldagi tilni rivojlantirdi. Frege aniq fan sohasi va shakldagi til o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida izlanishlar olib borib semantikaning rivojlanishiga hissa qo‘shdi².

An’anaviy tilshunoslikda modallik kategoriyasi turlicha tushuniladi. Shuning uchun ham tilshunoslarning bu haqdagi nuqtai nazarlarini aniqlab olish foydadan holi emas.

V.Vinogradov ham modal ma’nolarning subyektivligini e’tirof etgan holda uni sintaktik kategoriyalar sirasiga kiritadi³.

V.G. Admoni modallikni gapga xos bo‘lgan modallik va so‘z birikmasiga xos bo‘lgan deb ajratadi⁴.

Bundan shuni anglab olish mumkinki, modallik faqat so‘z bilan ifodalanmay balki so‘z birikmasi orqali ham ifodalanadi. A.M. Peshkovskiy so‘zlovchining subyektiv munosabatini aks ettiruvchi subyektiv-obyektiv kategoriya mavjudligini

¹ Nurmonov A, Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., 1992, 82 bet

² I. Augustin. Probleme mit deutschen Modalverben- Eine kontrastive Analyse zum Sprachgebrauch russischen Sprechender Au-pair-Mädchen, Dissertation zur Erlangung des Doktorgrades, Bayreuth 2006, S.11

³ V.V.Vinogradov. O kategorii modalnosti i modalnix slovar v russkom yazike//Izbranni trudi, issledovaniya po russkoy grammatike. M., 1975, s. 58-87

⁴ Admoni V.G. Vvedeniye v sintaksis sovremennogo nemetskogo yazika. M., 1955, s. 40

ta'qidlab, unga mayl, zamon shaxs, so'roq, undov, darak, kirish so'z hamda uning ifodalanishi, tasdiq, inkor va boshqalarni kiritadi¹.

Ayrim olmlarning fikriga ko'ra, so'zlovchining subyektiv munosabati gaplarninig ifoda maqsadlariga ko'ra turlarida o'z aksini topadi. Shunga muvofiq ular modallikga ko'ra gapning asosiy turlari darak, so'roq va buyruq gaplardan iborat deb qayd etadilar.

YE.V.Guliga hamda N.D.Natanzon modallik doirasiga real, noreal ma'nolarni qo'shadi. Bu nuqtai-nazarga qarshi o'laroq, K.T. Krushlinetskaya, P.S.Yermolayeva modal so'z bilan ishonch hamda gumon ma'nolarning ifodalanishini "reallik - noreallik" ma'nolar doirasiga kiritish aslo mumkin emasligini kayd etib, bu ma'nolarni modallikning alohida turi sifatida ajratadilar².

N.Y.Shvedova grammatik modallik haqida quyidagicha yozadi: "xabarlarning voqelikga munosabati obyektiv modallik, so'zlovchining xabarga munosabati obyektiv modallikdir³".

Qayd etilgan qarashlardan ayon bo'ladiki, tilshunoslar orasida modallikni tushunish hamda gaplarni modallikka ko'ra turlarga ajratishda har- xilliklar mavjud ekan.

Modallik so'zlovchining vokelikga bo'lgan, aniqlik ishonch, noaniqlik gumon kabi munosabatlarini aks ettirgan bo'lib, u o'z ifodasini predikativlikda topadi. Boshqacha qilib aytganda, gapning aniq fikr anglatishi undagi zamon va shaxs predikativlikni bildirsa, so'zlovchining gapda qilingan fikriga bo'lgan munosabatda modallikni ifoda etadi.

Yuqoridagi fikrdan shuni anglab olsa bo'ladiki, bir gapda ham predikativlik, ham modallik mujassamlashgan bo'ladi.

Olimlarning yuqorida keltirgan fikrlariga asosan intonatsiya ham modallikni ifodalashda muhim vositalardan biri sanaladi.

¹ Peshkovskiy A.M. Russkiy sintaksis v nauchnom osveshenii. M., 1956. s. 88-89

² Kurshelnitskaya K.G. Ocherki po sopostavitel'noy grammatike nemetskogo i russkogo yazikov. M., 1961

³ Shvedova N.Y. Vxodit li litso v krug sintaksicheskix kategoriy, formiruyushix predikativnosti// russkiy yazikax za rubejom. M., 1971. s., 53

Masalan: Er kommt. Vielleicht kommt er.

Misol tariqasida keltirilgan har ikkala gap ma'lum intonatsion tugallikka ega. Bu gaplarning har ikkalasi ham nisbatan tugal fikrni ifodalab kelyapdi, shu bilan birga zamon va shaxsni ham ko'rsatib kelyapdi. Bu narsa predikativlikni bildiradi. Biroq birinchi gapda uning kelishiga ishonch bildirilsa, ikkinchi gapda gumon bilan qaraladi. Shundan kelib chiqib, fikrlarga bayon qilingan munosabatlar xar xildir. Bu narsa modallikni tashkil etadi¹.

Modal ma'no so'zlovchi ifodalayotgan fikrga uning o'z munosabatini, ya'ni fikrning chin yoki yolg'onliga, gumonligi, afsus, mamnunlik, qoniqish va hakazolarni bildiradigan ma'no².

Bizga ma'lumki, o'zbek tili turk tillari oilasiga kiradi. Turkshunos olimlar ham modallik tushunchasiga o'z munosabatlarini bildirganlar. Turkshunos olimlarning ham bu masalaga munosabatini aniqlab qo'rishga harakat qilamiz.

A.N.Numaxanova modallik tushunchasi bo'yicha quyidagi fikrni bildiradi: "Modallik so'zlovchining voqelikga munosabatini aniqlab gap tuzishida doimo ishtirok etuvchi grammatik kategoriyadir³". Olima ya'ni ta'kidlaydiki, modallikka ko'ra gaplar darak, so'roq, buyruq va undov kabi turlarga ajratiladi.

SH. Rahmatullayev modallikka quyidagicha ta'rif beradi: "Fikrni voqelikka munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolar hamda bularning ifodalanish sistemasiga modallik kategoriyasi deyiladi⁴".

Muallif bu masalaga keyinchalik yana qaytadi va modallik so'zlovchining "voqelikka subyektiv – obyektiv munosabatini ifodalaydi"¹, deb qayd etadi. Tilshunos S.Usmonov modallik doirasiga so'zlovchining subyektiv munosabatini aks ettiruvchi barcha so'zlarni kiritadi.²

¹ S.Saidov., G'.Zikrillayev. Nemis tili grammatikasi. O'qituvchi, T., 1973, 158 bet

² Nemischa-o'zbekcha grammatik atamalar izohli lug'ati. T., 1992, 58 bet

³ Nurmaxanova A.N. Tipi predlozheniy po modalnosti i intonatsii v tyurkskix yazikax. Dok.diss. T., 1966, 72-83 bet

⁴ Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. T., 1957. 484-488 bet

¹ O'zbek tili grammatikasi. 2 tom. T., 1975, 582 bet

² Usmonov S. O'zbek tilida so'zlarning grammatik formalari. TDPI ilmiy asarlari. 42 tom. 2 kitob. T., 1964, 119 bet

Modallikni bunday tushunish soʻzlovchi hamda voqelik orasidagi har hil munosabatlarni ifodalovchi kategoriya sifatida eʼtirof etishga olib keladi.

Natijada modal maʼnolar doirasining favqulotda kengayishi sodir boʻladi. Jumladan, olim shunday fikr bildiradi: “Gapning darak, soʻroq, buyruq va undov kabi tillarga boʻlinishi butun gapdagi modallik tufaylidir”³.

Y. Pinxasov ham V. Vinogradovning modal maʼnolarining subyektivligini eʼtirof etgan holda uni sintaktik kategoriyalar sirasiga kiritishi toʻgʻirisidagi fikriga qoʻshiladi.

S.Saidov ham ana shu yoʻldan borib modallik kategoriyasiga soʻzlovchining emotsional va fikr ifodalash shakliga boʻlgan munosabatini ifodalovchi soʻzlarni ham kiritadi.⁴

Modallik fikrining vokelikga boʻlgan munosabatni koʻrsatadigan usullar majmumasidir. Soʻzlovchi oʻzining nutq mazmuniga, tinglovchiga, sharoitga, turli narsa va hodisalarga, umuman borliqqa boʻlgan munosabatini modal formalar orqali anglatadi.

I.Rasulov gramatik modallikning sintaktik kategoriya ekanligini qayd etadi.⁵

P. A. Komiljonova esa tildagi modallikni obyektiv-suʼbektiv kategoriya sifatida eʼtirof etadi.⁶

Modal maʼnolar morfologik, sintaktik va leksik usullar bilan ifodalanadi. Bu usullar oʻzaro zid bogʻlangan.

Modallikning morfologik ifodalanishi deyilganda odatda, mayl kategoriyasi, shuningdek zamon kategoriyasining ichki tarmoqlanishi nazarda tutiladi. Bu grammatik kategoriyalar asosan morfologiyaning feʼl bahsida, shuningdek, sintaksisning gap bahsida oʻrganiladi.

Modal maʼnoning leksik usulda ifodalanishi ikki xil:

1. Maxsus coʻz bilan ifodalanadi. Bular modal soʻz deb ataladi.

³ Usmonov S. Undov gaplar. T., 1955. 116 bet

⁴ Saidov S. Nemis va oʻzbek tillarida modal soʻzlar. Nomzodlik dissertatsiyasi. T., 1964. 113-116 betlar

⁵ Predikativlik va modallik hamda ularning oʻzaro munosabati. Oʻzbek tili va adabiyoti. T., 1972. 4-son. 28 bet

⁶ Komiljonova R. Oʻzbek adabiy tilida modal soʻzlar. Nomzodlik dissertatsiyasi. T., 1975. 32 bet

2. Biror turkumga (masalan, otga, sifatga) mansub soʻz orqali ifodalanadi.

Bular odatda yo modal maʼnoli soʻzlar boʻladi, yoki kontekstga koʻra modal maʼno ifodalab keladi¹.

Hozirgi zamon nemis tilida modallikning leksik usulda ifodalanishiga quyidagilar kiradi: modal soʻzlar, modallashgan feʼllar, modal feʼllar, konstruksiyalar, modal yuklamalar va modal ravishlar.

Modallikni sintaktik ifodalanishiga elliptik konstruksiyalar yoki boʻlishsizlik kiradi. Modallik maʼnolarining morfologik usul bilan ifodalanishiga mayl va zamon kiradi.

1.1 Modallikni ifodalovchi grammatik va leksik vositalar

Tilshunoslarni modallik mavzusi va modallik xakidagi tushunchalar har doim kiziktirib kelgan. Bunga 2004- yilning noyabr oyida Regensburgda boʻlib oʻtgan xalkaro simpoziumni misol tarikasida keltirib oʻtish mumkin. Modallik har-bir tilda sodir boʻladigan jarayon ekanligini tilshunoslarning yukorida keltirib oʻtgan fikrlaridan bilib oldik.

Modallik ikkala tilda ham xar-xil vositalar orkali ifoda etiladi. Yanada anikrok kilib aytganda leksik, sintaktik va grammatik vositalar orkali. Nemis

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Т., 1975. 582 бет

va o'zbek tillarida ham mayl kategoriyasi modallikni ifodalovchi grammatik vosita hisoblanadi.

Mayl kategoriyasi ish xarakatning vokelikka bo'lgan munosabatini so'zlovchi nuqtai - nazaridan belgilaydigan, uni reallik (aniklik), buyruk, istak, iltimos va boshka tarzlarda bayon qiladigan grammatik kategoreya¹.

Mayl fe'ning xar-xil formalari uchun qo'llaniladigan tushunchadir².

Fe'ning mayl kategoriyasi orkali ish-harakatning voqelikka bo'lgan munosabati reallik, buyruq, istak tarzida bayon qilinadi.³

Modallikni funksional semantik kategoriya bulib, u yuz bergan voqea hodisada morfologik, semantik-konstruktiv, intonatsiya va leksik birliklar orqali ifoda etilishini tilshunos olimlar keltirib o'tdi.

Modallik ishonch, ishonchsizlik, gumon (taxmin, faraz), shartlilik (majburiyat), zaruriyat, yordam, imkoniyat yoki imkonsizlik tushunchalarida namoyon buladi.

Ushbu tushunchalar mayl kategoriyasida ifodalanadi.

Mayl fe'ning morfologik kategoriyasi bo'lib modallikni ifodalovchi muhim til vositasi hamdir.⁴

Modallik gap mazmuniga reallik yoki noreallik, ishonch, kat'iylik va shubha, gumon va taxmin kabi ma'nolarni kirituvchi grammatik – semantik kategoriya.

Fe'ning modallik formalari aniqlik mayli (Indikativ m) orkali

Er gibt \ gab ihm das Buch,

buyruq mayli (Imperativ m) orkali Gib ihm das Buch!

Shuningdek konyunktiv I (Konjunktiv I m) Man gebe ihm das Buch! Va konyunktiv II (Konjunktiv II m) Gäbe ihm das Buch! Orqali hamda modal so'zlar orkali ifodalanishi mumkin.⁵

¹ Nemischa uzbekcha grammatik atamalar izoxli lug'ati, Toshkent 1992, 39 bet.

² Metzler Lexikon Sprache, Verlag I.B Metzler, Stuttgart. Weimar, 2000, 450 s

³ S.Saidov, G'.Zikrillayev, Nemis tili grammatikasi, Ukituvchi nashriyoti 1973, 82-bet.

⁴ Sommerfeld\Starbe.Einführung in die Grammatik der Deutschen Gegenwartssprache. 2.Auflage, Max Niemeyer Verlag, Tübingen 1992. 72 s.

⁵ Nemscha – uzbekcha grammatik atamalar izoxli lug'ati, Toshkent 1992,

Bizga ma'lumki, fikrni aniq ifodalash uchun intonatsiyalar ham muhim rol o'ynaydi. Bunday jarayonda esa urg'ularning qo'llanilishini ham o'z o'rnida bor.

So'z ichidagi unlilarning almashinishi, ovozning tushishi yoki ko'tarilishi ham modallik ifodasi uchun xarakterlidir.

Gap ma'lum intonatsion tugallikka ega. Gapning kuzatilgan maqsadga ko'ra turlarida intonatsiya har-xil bo'ladi. Modallikning sintaktik ifodalanishiga taalluqli bo'lgan va o'zaro chambarchas bog'langan bu ikki hodisa – gapning kuzatilgan maqsadga ko'ra turlari va intonatsiya - grammatikaning sintaksis qismida o'rganiladi¹.

So'zlovchining gapda bayon kilingan fikriga – voqelikka bo'lgan turli xil munosabatlarini ko'rsatuvchi kategoriyaga modallik kategoriyasi deyiladi. Modallik xar bir gapning konstruktiv belgilalaridan biri sanaladi².

Tilshunos S.Saidov nemis tilida gapdagi modallikni uch turga bo'linishini keltirib o'tgan va quyidagicha izohlagan:

1. Gapdagi fikrning aniqligini ifodalovchi modallik. Modallikning bu

turi gapda bayon kilingan fikrning real, anikligini tasdiqlash yoki inkor etishini ifodalaydi.

2. Gapdagi fikrning noaniqligini ifodalovchi modallik.

Bu modallik bayon kilingan fikrga shubxa, gumon, taxmin bilan qarashni, real- amalga oshadigan, noreal amalga oshmaydigan yoki shartli ravishda amalga oshadigan orzu- istaklarni ifodalaydi.

3. Harakatni bajarishga undash modalligi.

Bunday modallik so'zlovchining voqelik fakti hakida fikr yuritibgina qolmasdan, balki harakatni bajarishga undashini, buyurishini, qistashini, iltimos qilishini ifodalaydi.

¹ Uzbek tili grammatikasi, I tom, Toshkent 1975, 582-bet.

² S.Saidov, G'.Zikrillayev., Nemis tili grammatikasi, Toshkent 1973 y, 170- bet.

Modallikni ifodalanishida mayl kategoriyalari ham asosiy o‘rin egallaydi. Mayl kategoriyasi fe‘l harakatining borliqqa munosabatini real va irreal holatda ifoda qiladi.

1.1.1 Aniklik mayli (Indikativ)

Aniqlik mayli nemis tilida morfologik kategoriyadir. Aniqlik mayli konyunktiv va imperativdan tashqari holatlardagi formalarni yasaydi. Aniqlik maylida ish-harakatni, voqea-hodisani tasvirlaydi. Uning qo‘llanilish imkoniyatlari quyidagilar aniq, haqiqiy bo‘lib o‘tayotgan yoki aniq tasvirlangan voqea va hodisalar. Masalan: Er studiert in Berlin. Wenn wir besser arbeiten, werden wir größere Erfolge erreichen¹.

Aniqlik mayli maylning asosiy formasidir. Aniqlik mayli berilgan ish-harakatni ifodalaydi (Schmidt 1983, 233). Aniqlik mayli haqiqatda bo‘lgan, bo‘ladigan yoki bo‘layotgan harakatni bildiradi. Aniqlik maylining futurum 1 va futurum 2 formalari firning noaniqligini ifodalashda ham qo‘llaniladi.²

Yuqorida berilgan mulohazalardan kelib chiqib, aniqlik mayli ish-harakatning o‘tgan, hozirgi yoki kelasi zamonda sodir bo‘lishini ifodalanishida qo‘llanadi.

Misollar orqali aniqlik maylida modallikni ifodalanishini ko‘rib chiqamiz.

1. Einmal besuchte mich ein türkischer Philosoph aus Istanbul in Berlin (Imine Sevgi Usdamar. Mein Istanbul).

Bir kuni istanbullik turk faylfsufi menikiga Berlinga keldi (H.Qo‘chqorova. Istanbulim).

2. Und Madame Atina zeigte mir ihr eigenes Konstantinopel (Imine Sevgi Usdamar. Mein Istanbul).

O‘shanda Otina xonim menga o‘zining Konstantinopolini ko‘rsatgan edi (H.Qo‘chqorova. Istanbulim).

3. Erst war meine Mutter gegangen (Imine Sevgi Usdamar. Mein Istanbul).

¹ Lexikon Sprachwissenschaftlicher Termini. VEB Bibliographisches Institut, Leipzig, 1985, S., 98

² С.Саидов., Ф.Зикриллаев. Немис тили грамматикаси. Ўқитувчи. 1973. 171 бет

Avval onamdan ayrildim (H.Qo‘chqorova. Istanbulim).

Yuqorida berilgan misollarda modallik aniqlik maylida, fikrning realligi va aniqligi orqali ifodalanyapti.

1.1.2 Buyruk mayli (Imperativ).

Imperativ ham fe‘l mayllaridan biridir. Buyruq mayli ish-harakatni amalga oshirish uchun buyruq va talabni ifodalaydi. Imperativ taqiq va ogohlantirishni ham ifodalaydi. Imperativ barcha hind-yevroapa tillarida fe‘lning morfologik kategoriyais hisoblanadi. Imperativ eksklyuziv va inklyuziv bo‘lishi mumkin.¹

Buyruq mayli harakatni bajarishga undaydi.²

Buyruq mayli talabni, buyruqni, maslahatni, iltimosni, ta‘qiqni ifodalaydi. Buyruq maylini yordamchi vositasi intonatsiyasidir.

Macht die Tür auf! (Imine Sevgi Usdamar. Mein Istanbul).

Eshikni ochinglar! (H.Qo‘chqorova. Istanbulim).

Meine Mutter sagte: „Schau, die Griechen aus Istanbul sind das Salz und der Zucker der Stadt“ (Imine Sevgi Usdamar. Mein Istanbul).

Safar oldidan onam menga “Ehtiyot bo‘l, istanbullik greklar shaharning ham tuzi ham qonidir” deb qattiq tayinlagani ham yodimda (H.Qo‘chqorova. Istanbulim).

Fahren Sie mich zum Stadtzentrum (Imine Sevgi Usdamar. Mein Istanbul).

Meni shahar markaziga olib borib qo‘ying (H.Qo‘chqorova. Istanbulim).

Yuqorida berilgan misollarda harakatni bajarishga undash modalligini ko‘rish mumkin.

1.1.3Shart mayli (Konjunktiv).

¹ Lexikon Sprachwissenschaftlicher Termini. VEB Bibliographisches Institut, Leipzig, 1985, S., 97

² S.Saidov., G‘.Zikrillayev. Nemis tili grammatikasi. O‘qituvchi. 1973. 171 bet

Konyunktiv fe'l mayllaridan biri sanaladi. Konyunktiv berilayotgan fikrda ishonchsizlikni ifodalaydi. Konyunktiv barcha hind-yevropa tillari va boshqa ko'pgina tillarda ham fe'lning morfologik kategoriyasi hisoblanadi.¹

Konyunktiv (shart istak mayli) fe'l mayli formalaridan biri. Ish-harakatning bajarilishidagi shart, istak, tahmin, shubha kabi ma'nolarni ifodalovchi forma. Uning ikki xil ko'rinishi farqlanadi: konyunktiv 1 va konyunktiv 2.

Konyunktiv 1 biror boshqa harakat hodisining bajarilishi uchun u yoki bu harakatning bajarilishi shart ekanligini bildiruvchi mayl turi, fe'lning shu ma'noli formasi. Nemis tilida konyunktiv 1 ko'pincha amallga oshishi mumkin bo'lgan ish-harakatni ifoda etish uchun qo'llaniladi.

Konyunktiv 2. Nemis tilida bu forma ish-harakatning bajarilishi tahmin, gumon ma'nosini anglatganda qo'llanadi. Nemis tilida konyunktivni Präsens (hozirgi zamon) formalari va konyunktiv 2ni Präterital (yaqin o'tgan zamon) formalari deb ham yuritiladi.²

Shart maylini modallikni ifodalovchi grammatik vositalardan biri ekanligini yuqorida keltirib o'tdik. Misollar orqali modallikni ifodalanishini ko'rib chiqsak.

Ich glaube, ich könnte hier nicht leben (Imine Sevgi Usdamar. Mein Istanbul).
O'ylashimcha men bu yerda yashay olmasdim (Emine Sevgi Uzdamar. Istanbulim).

Das Flugzeug aber flog geradeaus, als ob es an einer Strange durch den Himmel gezogen würde... (Imine Sevgi Usdamar. Mein Istanbul).

... biroq samolyot bir tekis va to'g'riga uchardi, go'yo uni osmonda ushlab turgan ustuni borday (H. Qo'chqorova, Istanbulim).

Wohin er schaute, würden sich sofort alle Türen öffnen, um ihn hinein wachsen zu lassen (Imine Sevgi Usdamar. Mein Istanbul).

¹ Lexikon Sprachwissenschaftlicher Termini. VEB Bibliographisches Institut, Leipzig, 1985, S., 126

² Немисча – ўзбекча грамматик атамалар изохли луғати. Т., 1992, 49 бет

Oy qayoqqa boqsa, uni kirgizib olish uchun hamma eshiklar ochilayotganday (H. Qo‘chqorova, Istanbulim).

... und jeder, der ihn sah, der glaubte, dass er sterben müsse.

Uni ko‘rgan kishi tamom, endi endi o‘lishi muqarrar deb o‘ylardi (Tristan va Izolda. 14 b.)

... und flüsterte ihm zu, dass ihre Herrin ihn gern sehen möchte (Tristan und Isolda S. 8) Uning qulog‘iga bekasi uni ko‘rish niyatida ekanini asta shivirladi (Tristan va Izolda. 14 b.)

Fast hätte die Liebeswonne ihm dabei getötet (Tristan und Isolda S. 9) Muhabbat nashidasi sal bo‘lmasa yigitni halok etayozdi (Tristan va Izolda. 14 b.)

Gegen kein Königreich hätten sie das vertauscht (Tristan und Isolda S. 9) Ular bunday baxtiyor damlarini shu topda bir dunyo boylikka ham alishmasdilar (Tristan va Izolda. 14 b.)

Berilgan misollarda fikrning noaniqligini ko‘rishimiz mumkin.

1.1.4 Modal Fe’llar.

Nemis tilida modal fe’llar 6 tani tashkil qiladi: können, sollen, müssen, dürfen, wollen, mögen. O‘zbek tilshunosi S.Saidov esa modal fe’llarni 7 ta deb aytib utadi.¹

Modal fe’llar so‘zlovchining ifoda mazmuniga (fikrga) munosabatini bildiruvchi istak, imkoniyat va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi fe’llardir.²

¹ S.Saidov, Nemis tilidagi modal fe’llar va ularni uzbek tiliga tarjima kilish usullari, Sovet maktabi jurnali, 1962 y, 7-son, 49-bet

² Nemscha – uzbekcha grammatik atamalar izoxli lug‘ati, Toshkent 1992, 59-bet

Modal fe'llar ham xuddi bog'lama fe'llardek son jihatdan chegaralangan fe'llar guruhini tashkil qiladi.¹

Können, sollen, müssen, dürfen, wollen, mögen modal fe'llari barcha mustaqil fe'lning infinitivi bilan (Präsens oder Perfekt, Aktiv oder Passiv) birga keladi.

- verkaufen müssen
- verkauft haben müssen
- verkauft werden müssen
- verkauft worden müssen

Kamdan kam holatlarda modal fe'llar boshka modal fe'lning infinitivi bilan qo'llanadi:

- verkaufen können müssen²

Modal fe'llar nemis tilida eng ko'p qo'llanadigan fe'llardir. Bizga ma'lumki, o'zbek tilida modal fe'llar yo'q balki modal ma'nolarni ifodalaydigan modal so'zlar mavjud.

Modal fe'llar ham fe'l mayllari, modal so'zlar singari ishonch, gumon, zarurlik, buyurish va istakni ifodalaydi.

Modal fe'llarning ko'p ma'noda qo'llanishiga va modallikning bunday ifodalanishiga qaramay, bu mavzu bo'yicha o'zbek tilida to'lik ishlangan metodik adabiyot yo'q. Bu hakda ayrim darsliklarda qiskacha ma'lumot beriladi.³

Nemis tilidagi modal fe'llarning o'zbek tiliga tarjimasi quyidagicha beriladi⁴:
Können –kila olmok

Sollen- majbur bulmok

Müssen- zarur,kerak,lozim

¹ Reter Eisenberg ,Grundriss der Deutschen Grammatik \ Peter Eisenberg –Stuttgart Metzler, 1986, 95s

² Duden. Dudenverlag .Mannheim-Leipzig-Wien-Zurich, Bibliographisches Institut & F.A Brockhaus AG.Mannheim, 2006, 69-bet

³ S.Saidov, Nemis tilidagi modal fe'llar va ularni uzbek tiliga tarjima kilish usullari,Sovet maktabi jurnali,1962 y, 7-son, 49-bet

⁴ S.Saidov, G'.Zikrillayev, Nemis tili grammatikasi, Ukituvchi nashriyoti 1973,130-132 betlar.

Dürfen- ruxsat, mumkin

Wollen- xoxlamok

Mögen- istamok, xoxlamok

Nemis tilida modal fe'llar mayl bilan bir katorida modallikni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Modal fe'llar so'zlovchining ish harakatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Bunda ular xoxish-istak, ruxsat-ijozat, imkoniyat-mumkinlik, majburiylik va zaruriylik kabi ma'nolarni bildiradi. Shuningdek modal fe'llar suzlovchining bayon kilingan umum fikrga munosabatini ham ifodalab kelishi mumkin. Bunday xolda ular gumon, taxmin, noaniqlikni anglatadi.

1.2.2. Modal so'zlar.

Modallik kategoriyasi tilshunos uchun mantiqshunosga qarama-qarshi o'larok, dastavval funksional semantik kategoriyadir¹.

Modallikni ifodalashda leksik vositalardan sanaladigan modal so'zlar alohida guruhni tashkil qiladi.

Modal so'zlarga quyidagicha ta'rif beriladi:

Modal so'zlar so'zlovchining ifodalanayotgan fikrga ishonch, gumon, tasdiq, inkor kabi munosabatlar bildiruvchi so'z turkumi².

Nemis tilida modal so'zlar nisbatan cheklangan guruhni tashkil qiladi. Modal so'zlar deyarli 40 ta so'zni o'z ichiga qamrab olgan³. Ularning semantik jihatdan bo'linishi to'g'risida ham olimlar va tilshunoslar o'z fikrlarini bildirganlar.

¹ U.Lafasov, Dialogik nutkda subyektiv modallikning ifodalanishi, nomzodlik diss, Toshkent 1996 y, 21-bet.

² Nemscha – o'zbekcha grammatik atamalar izohli lug'ati, Toshkent 1992, 59-bet

³ Walter Jung, Grammatik der deutschen Sprache, Leipzig 1968 S.64

Gerxard Xelbeg modal soʻzlarni soʻzlovchining munosabatiga qarab quyidagicha klassifikatsiya qiladi¹.

-bilish munosabati aniqlikni ifodalaydi (zweifellos, fraglos, tatsächlich),

-ishonch munosabati farazni ifodalaydi, bunda chegaralangan ehtimollik xavfsizlikni(sicher, bestimmt, gewiss) maʼlum darajada past boʻlgan ishonchsizlikni (vermutlich, wahrscheinlich) yoki maʼlum darajada yuqori boʻlgan ishonchsizlikni ifodalashi mumkin.

- soʻzlovchining masofaviy munosabati masofani ifodalaydi (angeblich, vorgeblich)

- soʻzlovchining voqea hodisaga emotsional munosabati xayajonni emotsiyani ifodalaydi.(leider, Gottseidank, erfreulicherweise)

- soʻzlovchining baholash munosabati, voqea hodisaga foydali yoki sifatli fikr bildirishni ifodalaydi.(vorsichtigerweise, insinnigerweise, leichtvertigerweise)

C.Caidov xam modal soʻzlarni semantik jihatdan uch turga ajratadi²

1. Soʻzlovchining borliqqa boʻlgan fikrining reallik darajasini ifodalovchi modal soʻzlar. Bu turga kiradigan modal soʻzlar eng katta guruhni tashkil etib quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

- fikrning aniqligini tasdiqlash,maʼqullash, kuchaytirish,chegaralash yoki inkor etish orqali ifodalanishi mumkinligini anglatadi: ja, jawohl, doch, bestimmt,unbedingt, gewiss, wirklich,tatsächlich, sicher, fuerwahr, natuerlich,selbstverstaendlich.
- fikrning noaniqligini tahmin, chama, gumon, shubha, ishonchsizlik kabilarni anglatadi.offenbar, offenkundig, anscheinend, wahrscheinlich, scheinbar,moeglicherweise, etwa, meinetwegen.

2. Soʻzlovchining borliqqa boʻlgan emotsional munosabatlarni ifodalovchi modal soʻzlar. Glueklicherweise, erstaunlicherweise, gottlob, leider, schade kabi modal

¹ Gerhard Helbeg, Deutsche Grammatik-Grundfragen und Abriss, Auflage-Muenchen:1991, 104s

² С.Саидов, Ф.Зикриллаев, Немис тили грамматикаси, Укитувчи нашриёти 1973,130-132 бетлар

soʻzlar soʻzlovchining ruhiy kechinmalari (shodlik, xursandchilik, achinish, taajjub)ni ifodlab keladi.

Huddi shu maʼnoda Zum Gluek, Gott sei Dank, zum Ungluek, zu meinem Bedauern kabi modal iboralar ham qoʻllanishi mumkin.

3. Soʻzlovchining fikrini ifodalash formasiga boʻlgan munosabatlarni bildiruvchi modal soʻzlar.

Also, überhaupt, kurz, kurzum, folglich, endlich, schliesslich, erstens, zweitens, dann, vielmehr, einerseites-andererseits kabi modal soʻzlar fikrni umumlashtirish va xulosalashni, aniqlash va izohlashni, ajratib va chegaralab koʻrsatishni, bir fikrning ikkinchi bir fikrga qarama –qarshi qoʻyilishini, fikrni bayon etish tartibini anglatish uchun qoʻllanadi.

Oʻzbek tilida modal soʻzlarning qoʻllanilishi toʻgʻrisida ham olimlar va tilshunoslar oʻz fikrlarini bayon qilganlar. Y. Pinxasov quyidagi fikrni keltirib oʻtadi¹. Modal soʻzlar rus tilshunosligida ham oʻzbek tilshunosligida ham hozirga qadar hal qilinmagan masalalardan biridir. modal soʻzlarning maʼno xususiyatlari, grammatik belgilari bunday soʻzlarni alohida bir gruppada oʻrganishni talab qiladi. Soʻzlovchi maʼlum narsa yoki voqea hodisa toʻgʻrisida fikr yuritgan ekan, shu narsa yo voqea-hodisa haqida oʻz munosabatini ham ifodalaydi. Bu munosabat subyektning oʻz fikriga ishonch yoki gumon bilan qarashini, ana shu gapning navbatini, xulosasini yoki shu fikrning bironvaga tegishli ekanligini bildiradi. Bunday maʼnolar modallik kategoriyasini hosil qiladi. Modallik maʼnolari uch yul bilan ifodalanadi:

- morfologik yoʻl bilan
- sintaktik yoʻl bilan
- leksik yoʻl bilan.

¹ Y. Pinxasov, Xozirgi zamon uzbek adabiy tilida modal suzlar, // Uzbek tili va adabiyoti masalalari, 1961y, 1-son, 43-bet.

Modallik ma'nolarining morfologik yo'l bilan ifodalanishiga fe'llardagi mayl kategoriyasi kiradi.

Modallik ma'nolarining sintaktik yo'l bilan ifodalanishiga gapning mazmuniga ko'ra turlari (darak,surok, undov va buyruk gaplar), shu turlarni hosil qiluvchi va bir-biridan farqlab beruvchi vositalardan bo'lgan intonatsiya kiradi.

Modallik ma'nolarining leksik yo'l bilan ifodalanishi maxsus modal so'zlar va boshqa so'z turkumlaridagi omonimik xarakterga ega bo'lib qolgan ayrim so'zlar kiradi.

Modal so'zlar mustaqil so'z turkumlariga ham, yordamchi so'z turkumlariga ham, undov so'zlar jumlasiga ham kirmaydi. Modal so'zlar asos e'tibori bilan tilning keyingi taraqqiyotida mustaqil so'z turkumlaridan o'sib chiqib, maxsus bir so'z gruppasini tashkil etadi. Modal so'zlar leksik ma'nosi, morfologik tomondan turlanmasligi,tuslanmasligi, sintaktik jihatdan gap bo'lagi bo'la olmasligi bilan mustaqil so'zlardan farq qiladi.

Demak,modal so'zlar so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalash uchun xizmat kiladi. O'zbek tili tilshunosligida ham ular semantik jihatdan guruhlarga ajratiladi.

YA Pinxasov modal so'zlarni, ularning anglatgan ma'nolariga qarab asosan turt turga ajratadi¹.

- 1) fikrning aniqligini bildiruvchi modal so'zlar:
- 2) fikrning noaniqligini bildiruvchi modal so'zlar:
- 3) fikrning birovga qarashliligini bildiruvchi modal so'zlar:
- 4) fikrning bir-biriga bog'liq ekanini bildiruvchi modal so'zlar:

«Hozirgi zamon o'zbek tili» (1957 yil nashri) kitobi uchun yozilgan «modal so'zlar» maqolasining muallifi Shavkat Rahmatullayev esa, modal so'zlarni ma'nosiga ko'ra ikki turga ajratadi².

- fikrning aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so'zlar

¹ Y.Pinxasov, Xozirgi zamon uzbek adabiy tilida modal suzlar,// Uzbek tili va adabiyoti masalalari,1961y,1-son, 44-bet.

² Xozirgi zamon uzbek tili , Toshkent -1957, 485-bet.

- fikrning noaniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal soʻzlar

Akademik V.Vinogradov oʻzining «Russkiy yazik» (1947 yil nashri) kitobida modal soʻzlarning maʼno jihatdan 12 xili borligini koʻrsatadi. Keyinchalik , 1950 yilda nashr etilgan «O kategorii modalnosti i modalnix slovax v russkom yazike » nomli maqolasida modal soʻzlarning asosiy toʻrt turi borligi va toʻrtinchi turning 6 koʻrinishga ega ekanligini koʻrsatib oʻtadi.

Prof. YE.M Galkina – Fedoruk «Sovremenniy russkiy yazik» darsligi uchun yozgan maqolalarida modal soʻzlarni maʼnolariga koʻra ikki turga ajratadi;

1. fikrning aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal suzlar,
- 2.fikrning noaniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal soʻzlar,

Modal soʻzlarni maʼno, yaʼni semantik jihatdan turlarga ajratishda deyarli bir xillik yoʻk. Baʼzi olimlar modal soʻzlarni maʼno jihatdan toʻrtga boʻlsalar, ayrim tilshunoslar ikkiga boʻlib koʻrsatadilar. Bunday xollar tilda modallik tushunchasining oʻsib, boyib borayotganini, modallik kategoriyasi doirasining kengayotganligini koʻrsatadi.

1.2.3 Modal yuklamalar.

Yuklamalar ham modallikni ifodalash uchun xizmat qiladigan muhim leksik vositalardan biridir.

Yuklamalar ham predloglar va bogʻlovchilar singari gap boʻlagi vazifasida kela olmaydi hamda shu bilan birga morfologik jihatdan oʻzgarmaydi. Yuklamalar ikkiga boʻlinadi: modal yuklamalar (Die modalen Partikeln), grammatik yuklamalar(Die grammatischen Partikekn) ¹ Modal yuklamalar quyidagilar; Sogar, selbst, schon, nun: doch, so, zu, denn, nur, allein, bloss, erst, etwa, mal, man, ja, nicht, einmal, auch noch, gerade, eben. Modal yuklamalar kuchaytiruv ottenkasiga ega.

¹С.Саидов, Ғ.Зиқриллаев, Немис тили грамматикаси, Укитувчи нашриёти 1973,

Grammatik yuklamalar quyidagilar; zu, es, am, sich va nicht inkor yuklamasi.

Modal yuklamalar gap bo‘laklari orasida so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, gap bulaklari ma’nosini orttirilishi yoki chegaralanishi ma’nosini ifoda etadi.

Sogar, selbst, schon, nun: doch, so, zu, denn, nur, allein, bloss, erst, etwa, mal, man, ja, nicht, einmal, auch noch, gerade, eben kabilar modal yuklamalardir. Masalan: er schloss **sogar** die Augen.

Bu gapda **sogar** yuklamasi ma’noni kuchaytirish uchun xizmat kiladi. Modal yuklamalar ta’kid ma’nosini, gumon ma’nosini, buyurish undash ma’nolarini, tasdikni kuchaytirish ma’nosini ifodalab keladi.¹

Yuklamalar ravish (so, nur, schon, eben, bloss, nun) dan, olmoshdan (es, selbst, man) dan va bog‘lovchi (denn, doch) dan kelib chikkan. Shuning uchun ular uz funksiyalarida xam tez-tez uchrab turadi.²

Keyingi yillarda modal yuklamalarga qizikish tilshunoslarning diqqat markazidadir. Modal yuklamalar ayniqsa og‘zaki nutqda ko‘p qo‘llanadi. Modal yuklamalar suroqqa javob bo‘la olmaydi. Ular ko‘pincha gap funksiyalarini yoki fikrlarni bog‘laydi.³

Muallif yuklamalarni gapning maqsadga ko‘ra turlarida qo‘llanilishini ham keltirib o‘tgan.

Darak gaplarda qo‘llaniladigan yuklamalar;

Ja, halt, eben, wohl, schon, doch, nur, auch.

Wie du **ja** weisst, liegt sein Vater im Krankenhaus.

Undov gaplarda qo‘llaniladigan yuklamalar;

Ja, aber, vielleicht, bloss, doch, nur, einfach.

Das ist **ja** eine Unverschämtheit!

Istak gaplarda qo‘llaniladigan yuklamalar;

¹Nemscha – uzbekcha grammatik atamalar izoxli lug‘ati, Toshkent 1992

² S.Saidov, G‘.Zikrillayev, Nemis tili grammatikasi, Ukituvchi nashriyoti 1973, 149-bet.

³ Duden. Dudenverlag .Mannheim-Leipzig-Wien-Zurich, Bibliographisches Institut & F.A Brockhaus AG.Mannheim 2006,405..

Doch, nur, bloss.

Wenn es **doch**\ **bloss** besser würde! Wenn er **nur** der Frühling käme!

Buyruq gaplarda qoʻllaniladigan yuklamalar;

Ja, bloss, nur, ruhig, gefälligst

Mach ja \ bloss das Fenster zu! (duq urish)

Mach schon\ gefälligst das Fenster zu! (shoshilinch buyruk)

Mach nur\ruhig das Fenster zu! (ruxsat)

Mach doch\mal\ einfach das Fenster zu! (taklif)

Uzbek tilshunosligida ham yuklama kategoriyasi tushunchasi mavjud. Yuklamalar ham subyektiv modallikni ifodalovchi vositalardan sanaladi. Qator tilshunoslar yuklamalarning tarixi haqida, maʼno turlari¹ tugʻrisida oʻz fikrlarini bildirganlar.

Yuklamalar sostavining koʻmakchi va bogʻlovchi- yordamchi soʻzlariga nisbatan murakkab ekanligi ushbu til birliklari umumiy kategoriyal belgisining aniqlashida ham aks etadi.

Materiallarga tayangan holda yuklamalarga quyidagicha taʼrif beriladi:

Yuklamalar soʻzlovchi tomonidan gapda (kontekstga bogʻlik xolda), qoʻshimcha, baʼzan, yangi informatsiyani bayon qilish va turli tipdagi modal, emotsional, ekspressiv qiymatni ifodalash uchun qoʻllanuvchi hamda tildagi ayrim leksik, morfologik, sintaktik birliklarning organik konstruktiv elementi vazifasini bajaruvchi yordamchi soʻzlardir.

O. Bozorov yuklama kategoriyasini uning umumgrammatik funksiyasi nuqtai nazaridan quyidagi gruppalariga ajratgan².

1.Gap boʻlaklari va gaplarni kontekst asosida taʼkidlovchi – ajratuvchi yuklamalar.

¹ A. Axmedov, -mi yuklamasi va uning kullanishiga doir.\\ Uzbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent 1961, 3-son, 45-50. M. Askarova, Bogʻlovchi va yuklamalar xakida \\ Uzbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent 1962, 5-son, 5-12. SH. Shukurov, Yuklamalar tarixidan\\ Uzbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent 1963, 2-son, 37-40. O. Bozorov, Uzbek tilining yuklama kategoriyasi\\ Uzbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent 1977,2-son, 24.

² O. Bozorov, Uzbek tilining yuklama kategoriyasi\\ Uzbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent 1977,2-son, 26.

2. Gap turini va mazmun aspektini hosil qiluvchi yuklamalar.

3. Gapdagi modallik va emotsional – ekspressivliklikni ifodalovchi hamda ayrim tipdagi forma yasashlari uchun xizmat qiluvchi yuklamalar.

4. Soʻz yasash harakteriga ega boʻlgan yuklamalar.

Darhakikat, yuklamalar nutkda matn bilan bogʻlik serqirra, nozik modal maʼnolarni ifodalay oladi va bilan subyektiv modallikning milliy jozibasini oʻzida toʻla aks ettiradi.

1.2. 4 Modal ravishlar.

Modal ravishi soʻzlovchining borliqqa boʻlgan ishonch, taxmin, chama, gumon, shubha, tasdiq, inkor kabi maʼnolarni bildiruvchi soʻz turkumi. Nemis tilida modal ravishlarga quyidagilar kiradi: wahrscheinlich, wohl, vielleicht, sicherlich, möglicherweise, sondererweise va boshqalar.

Masalan: Ernst Timm ist wahrscheinlich vor einigen Wochen in Deutschland verhaftet werden. (W.Bredel. Die Enkel).

Martin wartete vielleicht jetzt noch an dem vereinbarten Treffpunkt. (A.Seghers. Die Toten bleiben jung).¹

1.Modal ravishlar ravish holining (sifatning) ifodalanishiga koʻra farqlanadi.

- sof ravishlar
anders, gern, so, wie
- sifat ravishlar
fleißig, gut, langsam, schlecht, schnell, tüchtig
- -lings qoʻshimchali soʻzlar (koʻpincha sifatlardan yasaladi)

¹ Немисча – ўзбекча грамматик атамалар изохли луғати. Т., 1992. 57 бет

2. ¹ Gerhard Helbig., Joachim Buscha. Deutsche Grammatik. Leigenscheidt. KG. Berlin/Muenchen, 2001, S., 312-313

blinglings, jährlings, rittlings

- –s va -los qo‘shimchali so‘zlar (ko‘pincha ot so‘z turkumidan yasaladi)
Eilends, unversehens, vorgebens, anstandslos, bedenkenlos, fehlerlos
- Umumlashtirish:
Derart, ebenfalls, ebenso, genauso, irdendwie, geradeaus, hinterrücks, insgeheim, kopfüber, kurzerhand, rundheraus, unverrichteterdinge.

2.O‘lchov va darajaning (miqdor va intensivlik) ifodalanishiga:
einigermassen, größtenteils, halbwegs, teilweise

- Vositalarning ifodalanishiga:
dadurch, damit, hierdurch, hiermit, wodurch, womit (olmosh ravishlar)
- Fikr kengaytirishni ifodalanishiga:
Auch, anders, außerdem, ferner, desgleichen, ebenfalls, gleichfalls, sonst, überdies, weiterhin, zudem.²

Modal ravishlar ma’nosi sifat so‘z turkumidagi so‘zlar ma’nosiga ham o‘xshash bo‘ladi.

1.2.5 Modallashgan fe’llar.

Modallik ma’nosida qo‘llanadigan shunday fe’llar ham borki, ular modallashgan fe’llardir. Ular modallikni ifodalashda leksik vositalardan biri hisoblanadi. Ular modal fe’llariga o‘xshash fe’llardir. Modallashgan fe’llar infinitiv va zu yuklamasi bilan birga qo‘llanadi¹. Modal ma’no so‘zlovchi ifodalayotgan fikrga uning o‘z munosabatini, ya’ni fikrning chin yoki yolg‘onligi, gumonligi, afsus, mamnunlik, qoniqish va h.k. bildiradigan ma’no. Modal ma’no modal so‘z, modal fe’l, modal forma kabi turli til birliklari yordamida ifodalanadi.

¹ Buscha/Heinrich/Zoch, Modalverben, Leipzig 1981, S.,9-10.

Masalan: Ich bin leider verhindert; Es scheint zu stimmen; Er pflegt zu rauchen; Er vermag diese Leistung zu vollbringen; er braucht nicht zu kommen.¹

Modallashgan fe'llarga quyidagilarni misol qilib keltiramiz:

brauchen (vor allem nicht)

du brauchst nicht mehr zu kommen.

du musst nicht mehr kommen.

drohen

Der Zug drohte zu entgleisen

Der Zug war in Gefahr zu entgleisen.

pflegen

Sie pflegen freitags auswärts zu essen.

Sie haben die Gewonheit, freitags auswärts zu essen.

scheinen

Sie schien ihn zu kennen.

Scheinbar kannte sie ihn. Anscheinend kannte sie ihn

verstehen

Er versteht ausgezeichnet zu lügen.

Er kann ausgezeichnet lügen.

wissen

Du wusstest dich zu beherrschen.

Du konntest dich beherrschen.

Adabiyotlar ro'yxati.

¹ Немисча – ўзбекча грамматик атамалар изоҳли луғати. Т., 1992, 57-58 бет

1. Admoni. V. G. Tipologiya predlojnniya// issladovaniya po obshey teorii grammatike. Moskva, 1968.
2. Askarova. M. Bog‘lovchi va yuklamalar haqida \ O‘zbek tili va adabiyoti masalalari , Toshkent, 1962, 5-son.
3. Axmedov. A. -mi yuklamasi va uning qo‘llanishiga doir.\ O‘zbek tili va adabiyoti masalalari , Toshkent, 1961, 3-son.
4. Bozorov. O.Uzbek tilining yuklama kategoriyasi\ O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent, 1977,2-son.
5. Borisova I. F., Imyaminova SH.S Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2005.
6. V. V. Vinogradov. O kategorii modalnosti i modalnix slovox v russkom yazike. Izbranni trudi, issledovaniya po russkoy grammatike. Moskva, 1975.
7. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992.
8. Komiljonova R. O‘zbek adabiy tilida modal so‘zlar. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 1975.
9. Lafasov U. Dialogik nutqda subyektiv modallikning ifodalanishi. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 1996.
- 10.Nurmonov A., Mahmudov N, Ahmedov A, Solixo‘jayeva S. O‘zbek tilining mazmuni sintaksisi. Toshkent, 1992.
- 11.Nemischa – o‘zbekcha grammatik terminlar lug‘ati. Toshkent, 1992.
- 12.O. I MoskalskaY. Grammatika nemetsskogo yazika. Moskva, 1956.
- 13.Peshkovskiy A. M. Russkiy sintaksis v nauchnom osveshiniye . Moskva, 1956.
- 14.Pinxasov. YA . Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida modal so‘zlar,O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, 1961, 1-son.
- 15.Saidov S. Nemis va o‘zbek tillarida modal so‘zlar. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 1964.
- 16.Saidov S. Nemis tilidagi modal fe’llar va ularni tarjima qilish usullari. 1962, 7-son.

17. Usmonov S. Undov gaplar. Toshkent, 1955.
- 18.O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 14 tomlik. 7- tom.
- 19.O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 14 tomlik. 7- tom.
- 20.O‘zbek Milliy Ensiklopediyasi. 1-tom Davlat Ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000.
- 21.Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1957.
- 22.O‘zbek tili grammatikasi. 2 –tom. 1975.
- 23.O‘zbek tilida so‘zlarning grammatik formalari. TDPI ilmiy asarlari. 42-tom. 2-kitob. Toshkent, 1964.
- 24.Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1-qism, fonetika, leksikologiya, morfologiya. Toshkent, 1966.
- 25.Admoni W. Der deutsche Sprachbau. Moskau –Leningrad, 1972.
- 26.Duden. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache
- 27.Duden. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache . Bibliographisches Institut, Mannheim/Wien/ Zürich. Dudenverlag, 1973.
- 28.Duden. Die Grammatik. Mannheim/ Leipzig/Wien/ Zürich 2006.
- 29.Gerhard Helbig. Deutsche Grammatik- Grundfragen und Abriss . München 1991.
- 30.Gerhard Helbig, Joachim Buscha . Deutsche Grammatik. Berlin/München 2001.
- 31.Gerhad Helbig , J. Buscha. Deutsche Grammatik. VEB Verlag Enzyklopädie, Leipzig 1972.
- 32.Gerhard Helbig. Lexikon deutscher Partikeln Lexikon, VEB Verlag Enzyklopädie, Leipzig 1988.
- 33.Christine Römer. Morphologie der deutschen Sprache, Tübingen und Basel 2006.
- 34.Hermann Paul. Deutsche Grammatik. Max Hueber Verlag, Halle 1959
- 35.Heinz Mettke. Mittelhochdeutsche Grammatik. Tübingen 1993.
- 36.Johannes Erben. Deutsche Grammatik. Max Hueber Verlag, München 1972

37. Lorenz Nieder. Lerngrammatik für Deutsch als Fremdsprache. Max Hueber Verlag 1987.
38. Monika Hoffmann. Deutsch fürs Studium. Verlag Ferdinand Schöningh, Paderborn 2005.
39. Lexikon Sprachwissenschaftlicher Termini. Leipzig 1985.
40. Metzler Lexikon Sprache. Stuttgart Weimar. 2000
41. O. Moskalskaja. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. Verlag "Hochschule", Moskau, 1975.
42. Paul/ Metzka. Mittelhochdeutsche Grammatik. 1966.
43. Sigbert Latzel. Die deutsche Tempora Perfekt und Präteritum. Max Hueber Verlag 1977.
44. Sommerfeld\ Starbe. Einführung in die Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. 2. Auflage. Tübingen 1962.
45. Walter Jung. Grammatik der deutschen Sprache. VEB Bibliographisches Institut, Leipzig 1968.
46. Wilhelm Braune/ Herman Paul/ Eduard Sievers. Beiträge zur Geschichte der Deutschen Sprache und Literatur. Tübingen 1993.
47. Wilhelm Schmidt. Grundfragen der deutschen Grammatik. Volk und Wissen Volkseigener Verlag, Berlin 1977.

Nomzodlik dissertatsiyalari

1. Nurmahanova A.N. Tipi predlozheniy po modalnosti i intonatsii v tyurkskix yazikax. Dok. Diss. Toshkent, 1966.
2. Komiljonova R. O'zbek adabiy tilida modal so'zlar. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 1975.

3. Saidov S. Nemis va o‘zbek tillarida modal so‘zlar. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 1964.
4. Lafasov U. Dialogik nutqda subyektiv modallikning ifodalanishi. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 1996.

Ilmiy maqolalar

1. Axmedov A., -mi yuklamasi va uning qo‘llanishiga doir.\\ O‘zbek tili va adabiyoti masalalari , Toshkent, 1961, 3-son.
2. Askarova M., Bog‘lovchi va yuklamalar xakida, O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent, 1962, 5-son.
3. Shukurov SH., Yuklamalar tarixidan,O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent, 1963, 2-son.
4. Bozorov O., O‘zbek tilining yuklama kategoriyasi, O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent, 1977 2-son.
5. Saidov S. Nemis tilidagi modal fe‘llar va ularni tarjima qilish usullari. 1962, 7-son.
6. Pinxasov. YA . Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida modal so‘zlar,O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, 1961, 1-son

Badiiy adabiyotlar ro‘yxati

1. G.Bren. Tristan und Isolde. Berlin 1975
2. G. Brayn. Tristan va Izolda (Parda Y. tarjimasi)_O‘zbekiston nashriyoti 1994
3. B. Apitz. Nackt unter Wölfen.Halle 1958
4. B. Apits. Qashqirlar changalida.(Egamova Y. tarjimasi) Toshkent 1986.
5. E. S. Üzdamar. Der Hof im Spiegel. Köln 2005.
6. E. S. Uzdamar. Istanbulim. (Qo‘chqorova H. tarjimasi) Chinor nashriyoti 2008.

